

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA BIR SEMALI VA KO'P MA'NOLI SO'Z BIRLIKLARINING LINGVISTIK TAHILI

Termiz davlat universiteti talabasi:
G'afforova Zamira Eshnazar qizi
Ilmiy rahbar: D.A. Ergasheva

Annotatsiya: Ushbu maqolada bir semali va ko'p ma'noli so'z birliklaring til va adabiyotdagi o'rni va ahamiyati o'rganib chiqildi. Tahlil vositasi sifatida O'tkir Hoshimov asarlaridan tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: formal tilshunoslik, bir semali so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, leksema, nutqiy hosila, O'tkir Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar".

Tilshunos olimlarning ta'kidlashicha, formal tilshunoslik bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zni farqlaganligi kabi nazariy leksikologiyada bir semali va ko'p semali leksema farqlanadi. Nazariy leksikologiyada qo'llangan so'z har doim bir ma'noli. Chunki so'z leksemaning bir martalik ko'rinishi bo'lib, u leksemaga zid ravishda betakrorlik tabiatiga ega. Leksema bir tushunchani ifodalasa, u bir semali leksema deyiladi. Masalan, *qalam* leksemasi bir tushunchani ifodalaydi va shu sababli bir semali leksema hisoblanadi. Ammo nutqda leksema ko'chma qo'llanishda har xil tushunchalarni ifodalayverishi mumkin.

Jamiyat taraqqiy etishi bilan nutqiy hosila ma'nolar vaqtincha ifodalagan tushunchasi bilan doimiy aloqadorlik kasb etib, bora-bora barqrorlashib boradi va hosila nutqiy ma'no lisoniyashadi. Natijada bir semali leksema birdan ortiq semali, ko'p semali leksemalarga aylanib boradi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, barchaning yuragidan joy olib brogan yozuvchi O'tkir Hoshimov ijodiga nazar tashalasak va yuqoridagi fikrlarimiz isboti tariqasida adibning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridan namunalar ko'rib o'tamiz.

"Ikki dengiz aro kechar lahzalar" (2) 1.kech – harakat (fe'l) 2.kech – payt ma'nosida (ravish)

"Xayolga tolaman: men o'zi kimman" (2) 1.tol – harakat (fe'l) 2.tol – daraxt (ot)

"Yaxshigayam, yomongayam birdek yaxshi ko'rinishga urinadigan odam eng xavfli odamdir!" (2) 1.ko'r – harakat (fe'l) 2.ko'r – xususiyat (sifat)

"Shunaqangi ayollar borki, qirqta erkak shaytonni aliment to'laydigan qilib qo'yadi" (2) 1.to'la – harakat (fe'l) 2.to'la – belgi (sifat)

"O'ninchি asr. Abu Nasr Forobiy Aristotelning "Metafizika" asariga eng mukammal sharh yozib, "ikkinchi ustoz" unvonini oldi" (4) 1.yoz – harakat (fe'l) 2.yoz – fasl (ot)

“Erta bahor edi. Kech turdim. Hovliga tushsam, havoning avzoyi buzuq”.(5)
1.tush – harakat (fe'l) 2.tush- uyqudag'i tush (ot)

“Dunyo tashvishlaridan to'yib ketsangiz shularni ziyorat qiling: hayot abadiy emasligini o'ylab, taskin topasiz” (6) I.1. to'y-harakat (fe'l) 2.to'y-marosim (ot)
II.1.o'y – harakat (fe'l) 2.o'y – hayol (ot)

“Maktabimiz biqinida ariq oqardi. Ariqda charxpalak bor edi” (12) 1.oq – harakat (fe'l) 2.oq – rang (sifat)

“Bu odam loydan yasalgan qo'g'irchoqqa o'xshaydi. Zamon sal o'zgarsa, boshidan jinday suv quyadi-da, loyini iylab-iylab, o'zini qaytadan yasab, boshqa qiyofaga kirib oladi... Qattiqroq yomg'ir yog'sa, balchiqqa aylanib ketadi-yov!” (15)
1.yog' – harakat (fe'l) 2.yog' – narsa (ot)

“Quyosh buloq suviga ham, mag'zavaga ham baravar nur sochaveradi” (17)
1.soch – harakat (fe'l) 2.soch – narsa (ot)

“Echkidek amalga mingan edi, fil ustida o'tirgandek bosar-tusarini bilmay qoldi. Amaldan tushganidan fildan yiqilgandek suyaklari sochilib ketmasa deb qo'rqaman!” (19) I.1.o't – harakat (fe'l) 2.o't – o'simlik (ot) 3.o't – inson organizmi (ot)
II.1.tush – harakat (fe'l) 2.tush – uyqudag'i tush (ot)

“Mabodo qachondir mansabdor bo'lib qolsang bilib qo'y: amal kursisida o'tirganingda kim eng ko'p tovoningni yalasa, kursidan tushganingda o'sha birinchi bo'lib sendan yuz o'giradi!” (21) I.1.qo'y – harakat (fe'l) 2.qo'y – hayvon (ot)
II.1.yuz – aft (ot) 2.yuz – raqam (son)

“Oshsiz uy bor, urushsiz uy yo'q” deydilar. Oilangda janjal chiqsa, eng avval farzandlaringni o'ylab ish qil!” (21) I.1.osh – ovqat (ot) 2.osh – harakat (fe'l)
II.1.uy – hovli (ot) 2.uy – harakat (fe'l) III.1.qil – harakat (fe'l) 2.qil – narsa (ot)

“Qog'oz pok bo'lgani uchun zarracha cho'g' tushsa, yonib ketadi. Paytava kir bo'lgani uchun tutaydi-yu, yonmaydi” (24) I.1.kir – belgi (sifat) 2.kir – harakat (fe'l)
II.1.tut – harakat (fe'l) 2.tut – meva (ot) III.1.yon – harakat (fe'l) 2.yon – tomon (ot)

Leksema ko'p semali bo'lsa har bir sememada boshqa-boshqa tushuncha aks etgan sememalarda farqli sememalar mavjud har bir sememaning nutqiylar voqealanishidagi qurshovi o'ziga xos, har bir sememasi asosida bog'lanuvchi birliklar paradigmasi turlicha bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T., 2010. O'quv qo'llanma. O'zMU IK tas.
2. Raximov S., Umirqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism. T.: O'qituvchi, 2003. Darslik. O'z R OTV tas.
3. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism. T.: O'qituvchi, 2005. Darslik. O'z R OTV tas.
4. Mengliyev B.M., Sh.Shoyqulov va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 3-qism. -Qarshi, O'quv qo'llanmaning elektron versiyasi. 2004. QDU IK tas.